O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G. Rixsiyeva
______________

2021 yil “28” 08

# XALQARO MEHNAT BOZORI VA MIGRATSIYA

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000 | Biznes,boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 410000 | Biznes va boshqaruv |
| **Mutaxassislik:** | 70411902 | Tashqi iqtisodiy faoliyat (tashqi savdo faoliyati) |

**Toshkent-2021**

| Fan/modul kodi<br>XMB102 | | O‘quv yii<br>2021-2022 | Semestr<br>2 | Kreditlar<br>2 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta’lim turi<br>O‘zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>2 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Xalqaro mehnat bozori va migratsiya | | 30 | 30 | 60 |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – magistrantlarga xalqaro mehnat bozorining shakllanishi, rivojlanishi, uning amal qilish funksiyalari va mexanizmlari hamda unda xalqaro migratsiya jarayonlarining o‘rni bilan bog‘liq nazariy bilimlar berish hamda xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarini bevosita mamlakatlar va aniq misollar bilan sharhlash orqali amaliy va uslubiy ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – nazariy va amaliy materiallarga tayangan holda xalqaro mehnat bozorining faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlarini ochish berish, xalqaro mehnat migratsiyasining dinamikasi va uning tendensiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsata olish, mehnat migrantlarini qabul qiluvchi va yetkazib beruvchi markazlarning rivojlanishi va mehnat migratsiyasining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Xalqaro mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi.**

Xalqaro mehnat bozori to‘g‘risidagi nazariy qarashlar.Xalqaro mehnat bozori- jahon mehnat bozorining muhim bo‘lagi sifatida.Globallashuv sharoitida xalqaro mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi. Xalqaro mehnat bozoridagi zamonaviy tendensiyalar. Xalqaro mehnat bozori shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. Xalqaro mehnat bozorining shakllanishida xalqaro migratsiya jarayonlari. Xalqaro mehnat migratsiyasining oqibatlari.

**2-mavzu. Mintaqaviy mehnat bozori xalqaro mehnat bozorining bir qismi sifatida.**

Regionalashuv sharoitida mintaqaviy mexnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi. Yevropa Ittifoqi mintaqaviy mehnat bozori. NAFTA mintaqaviy

mehnat bozori. Osiyo mintaqviy mehnat bozori va uning tarkibiy qismlari. MDH mintaqaviy mehnat bozori.

**3-mavzu.Xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarining tartibga solinishi va noqonuniy migratsiya.**

Mehnat migratsiyasini tartibga solish usulllari va turlari. Emigratsiyani tartibga solish. Immigratsiyani tartibga solish. Reemigratsiyani tartibga solish. Xalqaro migratsiya jarayonlarini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning o‘rni. Xalqaro migratsiya jarayonlarini tartibga solishda XMT va BMT konvensiyalarining o‘rni. Noqonuniy migratsiyani keltirib chiqaruvchi omillar. Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari.

**4-mavzu. Dunyodagi yirik ishchi kuchi retsipiyentlari.**

G’arbiy Yevropa mintaqasi mamlakatlari ishchi kuchi retsipiyenti. Avstraliyada immigratsiya jarayonlari. Rossiya Federatsiyasi-zamonaviy retsipiyent markaz. AQSHda migratsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi. AQSHda immigratsiya jarayonlarini tartibga solinishi. AQSH-yirik retsipient markaz sifatida. AQSH “aqliy salohiyat”ni jalb qiluvchi yetakchi mamlakat. Fors ko‘rfazi mintaqasi mamlkatlari ishchi kuchi retsipiyenti sifatida

**5-mavzu. Dunyodagi yirik ishchi kuchi donorlari.**

Lotin Amerikasi mamlakatlarida emigratsiya jarayonlari. Hindiston yirik ishchi kuchi donori sifatida. Filippin-yirik ishchi kuchi eksportyori sifatida. Misr Arab Respublikasi emigratsiya jarayonlari. Marokash Qirolligidagi ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

**6-mavzu. Osiyo mintaqasi mamlakatlarining xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuvining o‘ziga xos xususiyatlari.**

Yaponiya mehnat bozorining zamonaviy holati, uning tarkibiy tuzilishi va rivojlanish omillari. Koreya Respublikasining xalqaro mehnat bozoridagi ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari. Xitoy Xalq Respublikasining migratsiya siyosati. Turkiya Respublikasining ishchi kuchi importyoriga aylanishi.

**7-mavzu. Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlaridagi ishtiroki.**

Markaziy Osiyo mintaqasi mehnat migratsiyasi jarayonlari yuzaga kelishining ishchi va tashqi omillari. Qozog‘iston mintaqadagi ishchi yirik ishchi kuchi retsipienti sifatida. Tojikiston va Qirg‘izistonda ishchi kuchi emigratsiyasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi. O‘zbekistonning mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik yo’nalishlari.

| | |
|---|---|
| | 18.www.iom.com<br>19.www.fms.gov.ru<br>20.www.migration.uz<br>21.www.demoscopeweekly.ru<br>22.www.mirpal.com |
| 7. | O‘quv dasturi “Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizmi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil “26” avgust dagi “1” – sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil “28” avgust dagi “1” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun ma’sullar:**<br>Qodirova Z.A. -Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm” kafedrasi mudiri, PhD |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Abdullayev R.V. - O‘zXIA, “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori.<br>Sharifxo‘jayev Sh.O. - JIDU, “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori. |



| | |
|---|---|
| | **III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**<br>Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:<br>1. Xalqaro mehnat bozoridagi zamonaviy tendensiyalar.<br>2. MDH mintaqaviy mehnat bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.<br>3. Ishchi kuchini yetkazib beruchi mamlakatlarda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash.<br>4. Rossiya Federatsiyasi-zamonaviy retsipiyent markaz sifatida.<br>5. Hindistonda autsorsing xizmatlari-emigratsiya jarayolarini yumshatuvchi omil sifatida<br>6. Osiyo mintaqasidagi eksportyor mamlakatlar iqtisodiytida mehnat migratsiyasi jarayonlarining rivojlanishi.<br>7. Singapur va Malayziyada immigratsiya jarayonlari.<br>8. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarining xuquqiy asoslari<br><br>Amaliy mashg‘ulotlar mul'timedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi lozim. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.<br><br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. Xalqaro mehnat bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.<br>2. Fors ko‘rfazi mintaqasi xalqaro mehnat migratsiyasi markazi sifatida.<br>3. MDH mintaqaviy mehnat bozori.<br>4. Fors ko‘rfazi mintaqasidagi mexnat migratsiyasi jarayonlari.<br>5. Yaponiya mehnat bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.<br>6. Koreya Respublikasining xalqaro mehnat bozoridagi ishtiroki.<br>7. Malayziyada mehnat migratsiyasi.<br>8. Qozog‘iston Markaziy Osiyodagi yirik ishchi kuchi eksporteri sifatida.<br>9. Xitoyning xalqaro mehnat bozoridagi o‘rni va roli.<br>10.“Saudlashtirish” siyosati.<br>11.Malayziyada tashqi mehnat migratsiya jarayonlarining rivojlanishi.<br>12.NAFTA- mintaqaviy mehnat bozori sifatida.<br>13.O‘zbekistonning Koreya Respublikasi bilan migratsiya sohasidagi hamkorligi.<br>14.Misr Arab Respublikasida tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarining tartibga solinishi.<br>15.Germaniya- Garbiy Yevropadagi yirik retsipiyent sifatida. |

| | |
|---|---|
| | 16.Sharqiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro migratsiya jarayonlari.<br>17.XMTning xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solishdagi ro'li.<br>18.BAA-Yaqin Sharqning yirik mehat resurslari importyori.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalari**<br>Magistr bilishi kerak:<br>• Xalqaro va mintaqaviy mehnat bozori tushunchasining mohiyati, unga doir nazariy qarashlar hamda mazkur bozorlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlar, xalqaro mehnat migratsiyasining omillari va vazifalari to'g'risida hamda xalqaro mehnat migratsiyasi va noqonuniy migratsiyaning mamlakatlar uchun oqibatlari, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarini mamlakat, mintaqaviy va xalqaro miqyosda tartibga solishning turlari va shakllari, dunyodagi yirik ishchi kuchi importyorlari va eksportyorlari mamlakatlarida migratsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi hamda asosiy immigrantlar oqimi ***haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***<br>• Xalqaro va mintaqaviy mehnat bozorlarida yuz berayotgan zamonaviy tendensiyalarni, xalqaro mehnat migratsiyasining ishchi kuchi importyorlari va eksportyorlari uchun ijobiy va salbiy oqibatlarini, "aqliy salohiyat oqimining yutuqlari va kamchiliklarini ajratish va tahlil qilish hamda mazkur muammoni bartaraf etish bo'yicha o'z takliflarini ishlab chiqish, noqonuniy migratsiya jarayonlarini oldini olish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar va siyosatni tahlil qilish va baholash ***ko'nikmalarga ega bo'lishi***;<br>• Xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishning oqibatlarini aniqlash, XMT konvensiyalarining mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilishdagi samarasini mamlakatlar tajribasi misolida aniqlash va tahlil qilish, resipient mamlakatlarda immigratsiya jarayonlarini tartibga solinishi, asosiy immigranlar oqimi bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilish va uning oqibatlarini aniqlash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash; |



| | |
|---|---|
| | • taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi lozim. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. З.А.Қодирова. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви.Монография. Т.2016.<br>2. С.В.Рязанцев, М.Ф.Ткаченко. Мировой рынок труда и международная миграция.М.2010<br>3. Labor migration in Asia: building effective institutions.ILO.UK.2016.-92p.<br>4. А.А. Гребенюк. Международная трудовая миграция и экономичское развитие:последствия, система показателей и Российские реалии. М. 2019.-310 с.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b.<br>6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 48b.<br>7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017.<br>8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.<br>9. С.Н.Кононенко, М.К.Мукимова. Миграционные процессы в странах зарубежного Востока.Т.2011.<br>10.Д.В.Расулова. Ишчи кучи миграцияси ривожланишининг назарий асослари.Т.2010.<br>11.International Migration Outlook 2019. OECD 2019.<br>12.World migration report 2020.IOM UN Migration. 2020.-498p.<br>13.Cedric Audebert. Mohamed Kamel Dorai. Migration in a Globalised World. AmsterdamUniversity Press, 2010.<br>**Axborot manbalari**<br>14. www.esa.org.<br>15.www.globalmigrationgroup.org<br>16.www.worlbank.com<br>17.www.ilo.com |